



**Kushon davlatida shaharsozlik an'alarining
mustaqillik yillarida o'rganilish tarixi**

Y.Turopova

R.Valiyeva

SHDPI Tarix yo'nalishi

1-kurs 1.24 guruh talabalari

Abstract: In this article, information about the establishment of the Kushan state and the location of the socio-economic life of this state, the training and development of the population, is explained through the analysis of literature.

Key words: Yuechji, Kudzula Kadfiz, Vima Kadfiz. Kaneshka, refugium, Buddhism.

Annotatsiya: Ushbu magolada Kushonlar davlatining tashkil topishi va bu davlatning iitimoiy-iqtisodiy hayoti joylashgan o'rni aholi mashg'ulotlari va rivojlanishi haqidagi ma'lumotlar adabiyotlarni tahlil qilish orqali yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Yuechji, Kudzula Kadfiz, Vima Kadfiz, Kaneshka, refugium, buddaviylik.

Аннотация: В данной статье посредством анализа литературы излагаются сведения о создании Кушанского государства и месте социально-экономической жизни этого государства, обучении и развитии населения.



Ключевые слова: Юечжи, Кудзула Кадфиз, Вима Кадфиз. Канешка, рефугиум, буддизм.

KIRISH. Kushon podsholigi Osiyodagi eng yirik quldorlik davlatlaridan biri bo'lgan. U ravnaq topgan vaqtda Turonning sharqiy, janubi-sharqiy viloyatlari, g'arbiy Xitoy. Baqtriya va Hindistonning katta qismini egallagan edi. Podsholik yerlarining katta-katta maydonlari tog'lardan iborat. Hind. Oks, Gang, Braxmaputra va Jamna daryolarining ho'ylari tekisliklardan iborat bo'lgan. Bu o'lka hayvonot, o'sim - liklar, yer osti va usti qazilma ashyolariga juda boy boigan. O'lkaning boy tabiiy sharoiti bu yerda qadimdan odamlarning yashashlari uchun imkon bergan. [1]

Mil. avv. 25-yildan keyin Katta yuechji davlatining inqirozi va yuqorida eslatilgan mulklarning mustaqil bo'lishi. Kushon (Guyshuan) yabg'usi Kiotszyukyu (Kujula Kadfiz) qolgan to'rtta mulkni birlashtirib, Kushon davlatiga asos soldi. Kushonlarning hokimiyat tepasiga kelish sanasi, ushbu davlat tarixini davrlashtirish ayrim kushon yozuvlari, tangashunoslik ma'lumotlari, qisman Xitoy manbalari, buddaviy ma'lumotlar va ilk o'rta asrlar manbalariga asoslanadi. Kushon davlatining paydo bo'lishi haqida ko'proq Xitoy manbalari va tangashunoslik ma'lumotlari xabar beradi. Umuman, Kushonlar saltanatining vujudga kelishi va rivojlanishi uzoq vaqt tadqiqotchilar orasida bahslarga sabab bo'lgan bolsada, o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu masalaga ko'plab aniqliklar kiritish imkonini bergan tadqiqotlar olib borildi. Mil. avv. I asrning oxiri - mil. I asrning boshlariga kelib, Guyshuan hokimi Kiotszyukyu barcha mulklarni birlashtirib, Kobuliston va Qandahorni zabt etadi.[2]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Bu mavzuni yoritishda Kushonlar davlatining ijtimoiy iqtisodiy hayoti, tashqi siyosati yaxshi o'rganilgan bo'lib, A.Sagdullayev



“O‘zbekiston tarixi” SH.Pidayev “Sirli Kushonlar saltanati” A.Kabirov “Qadimgi Sharq tarixi” R.Rajabov “ Qadimgi dunyo tarixi” kabi adabiyotlarda malumotlar uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Manbashunoslik, matnshunoslik, tahlil qilish.

Tahlil va natijalar. Kushon podsholigining tashkil topishi. M. av. IV - III asrlarda shak qavmlariga mansub yuechji qabilalari Markaziy Osiyoning g'arbiy qismida yashar edilar. Yuechjilardan sharqdagi bepoyon dashtlarda esa xunn qabilalari yashagan. Uzoq yillar mobaynida yuechjilar o 'tloq yer talashib xunlar bilan kurash olib borganlar. Bu janglatda goh xunlar, goh yuechjilar g'olib chiqar edi. Keyinchalik xunlar kuchayib. yuechjilarni markaziy Osiyodan g'arbga chekinishga majbur qilganlar. Ular dastlab Oloy va Dovonga (Farg'ona vodiysi) ko'chib, so'ng So'g'diyona, shimoliy Baqtriyaga, undan esa Janubiy Baqtriya bo'ylab tarqalganlar. Yuechjilar xyumi, shuanmi, guyshuan. xisi va xuanmi kabi bir-biriga qarindosh-urug' qabilalardan iborat etnik guruhlardan tashkil topgan edi. Kudzula Kadfiz I vafotidan so'ng podsholik taxtiga o 'g 'li Vima Kadfiz II o'tiradi. U 30 yil podsholik qilib. Hindistonning Panjob va Gang vohalarini bosib oladi. Kadfiz II o 'z nomidan oltin va kumush tangachalar chiqaradi. Kushon podsholigi Kanishka (78-123) davrida Osiyodagi eng kuchli quldorlik davlatlaridan biriga aylanadi. Kanishka Hindistonning katta qismini Kushon davlati tarkibiga qo'shib oladi. U Parfiya bilan zalarli urushlar olib boradi. Kanishka davrida Qoshg'ar, Yorkent va X o'tan ham Kushon saltanati tarkibiga kiradi. Shu davrda Kushon saltanatining yerlari Hindistondan Orol dengizigacha. Parfiyadan X o'tangachayoyilgan edi. Bu davrda Kushonlar saltanatining poytaxti Baqtradan Peshovarga ko'chirilgan.[3] Kanishkaning vorislari Xuvishka va Vasudevalar davrida ham Kushon davlati o 'z kuch-qudratini saqlab qolgan. Xitoy tarixchilaridan biri “Kushon podsholigi 100 ming oila va 100 ming kishilik qo'shından iborat bo'lgan”. deb ta'kidlaydi. Ammo podsho Xuvishka vafotidan so'ng Kushon davlati ikkiga bo'linib, birida Vasudeva, ikkinchisida esa Kanishka III podsholik. qilgan. Kushon podsholigining ikkiga bo'linib ketishi uning kuch-qudratiga putur etkazadi va zaittashtiradi. Xuddi shu davrda



Eron sosoniylari kuchayib, Kushon podsholigining g'arbiy viloyatlariga bostirib kiradi. 242-243-yillarda bo'lgan shiddatli janglarda sosoniy shohi Shopur I (309-379) qo'shinlari kushon qo'shinlari ustidan g'alaba qozonadi. Keyingi janglarda ham kushonlar sosoniylardan yengilib g'arbiy viloyatlaridan ajradilar. Uzoq davom etgan ichki nizolar, g'arbdan sosoniylar va shimoldan ko'chmanchi qabilalarning shiddatli hujumlari tufayli IV asr oxiriga kelib Kushon podsholigi emirilib batamom barham topadi. Kushon podsholigi davrida xo'jalikning hamma tarmoqlari rivoj topdi. (Hind, Oks, Jamna kabi katta-kichik daryolarning bo'ylaridagi unumdor yerlar dehqonchilik markazlari edi. Kushonlar davrida suv omborlari. kanallar, ariqlar va suv inshootlari qurilishiga katta e'tibor berilgan. Ziroatkorlar bug'doy, arpa, sholi, g'o'za, tariq, kunjut, mosh, no'xat kabi ekinlar ekib. ulardan mo'l hosil olganlar. Dehqonlar podsholikning O'rta Osiyo qismida qovoq, bodring, qovun va tarvuz ekib polizchilik bilan ham shug'ullanganlar. Podsholikning ko'p joylarida, avniqsa tog' va tog'oldi yerlarida bog'bonlar olma, nok, o'rik, gilos, shaftoli, anor, anjir kabi mevali daraxtlarni ekib parvarish qilganlar. Kushonlar podsholigi davrida chorvachilik ham ancha taraqqiy etadi. Kushonlar davrida hunarmandchilik ham ravnaq topadi va yuksaladi. Podsholikda temirchilik, to'qimachilik. kulolchilik, qurolsozlik, me'morchilik, zargarlik va kemasozlik ancha taraqqiy etgan edi. Hunarmandchilikning yirik markazlari - shaharlar va yirik qishloqlar bo'lgan. Kushonlar davrida savdo-sotiq ham rivojlangan edi. Hind savdogarlari "Buyuk ipak yo'li" va boshqa savdo yo'llarining tarmoqlari orqali Xitoy, O'rta Osiyo, Old Osiyo mamlakatlari bilan savdo qilganlar. Kushonlar podsholigi davrida Sharqning mashhur "Buyuk ipak yo'li ning tarmoqlari uzaytirilib, savdo-sotiq hamma davrlarga nisbatan gavjumlashadi. Kushon podsholigida juda ko'p xalqlar va elatlar yashagan. Shuning uchun ularning madaniyati rang-barang bo'lgan. Bu narsa tasviriy san'atda, diniy e'tiqodda ham o'z aksini topgan. Kushon podsholigidagi qabila va elatlar buddizm, zardushtiylik va ibtidoiy din shakllariga e'tiqod qilganlar. Kushon davrida ilmiy-amaliy bilimlar -falsafa, tarix, geografiya, tabobat, matematika kabi fanlar ham rivoj topgan edi. Kushon madaniyati Qadimgi Hindiston va O'rta Osiyo xalqlarining mashaqqatli



mehnati bilan yaratilgan va ravnaq topgan. Kushon madaniyati jahon va Osiyo xalqlari madaniyatiga o'zining samarali ta'sirini o'tkazgan. [4]

Yozma manbalarga qaraganda “Katta yuechji” qabilasi Yunon-Baqtriya shohligi ustidan g'alaba qozongandan so'ng Amudaryoning o'ng sohiliga joylashadi va beshta knyazlikka- Xyumi, Shuanmi, Xise, Dumi va Guyshuanga bo'linadi. Ko'chmanchi qabilalar Baqtriyaning boy an'analari, taraqqiy etgan davlat tuzumi va yuqori rivojlangan madaniyatning shohidi bo'ldilar. Baqtriyaliklar o'zlarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi bilan ko'chmanchilardan ancha yuqorida turar edilar. Shuning uchun ular baqtriyaliklarning yutuqlarini o'zlashtirishga kirishdilar. Bu faqatgina ko'chmanchi qabilalarning hohishigina bo'lmay, balki jamiyat taraqqiyoti taqozosi ham edi. Birinchi o'rinda ko'chmanchi qabilalarning hokimlari Baqtriyada zo'r taraqqiy etgan tovar-pul muomalasini hal qilishga kirishdilar. Tabiiyki, bu hol yuechji hokimlaridan bozorni to'ldirish uchun yangi tangalar chiqarishni talab qilar, ularning esa bu sohada tajribasi yo'q edi. Shuning uchun ular eng oddiy usul, yani makur territoriyada muomalada yurgan Evkradit va Geliokl tangalariga taqlid qilib tanga zarb qila boshlaganlar. Olib borilayotgan tadqiqotlarga qaraganda arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, Geliokl tangalariga taqlid qilib chiqarilgan tangalar bu davrda ko'proq ko'proq muomalada bo'lgan. Tangalarning old tomonida nomalum shohning boshi, orqa tomonida yunonlar xudosi Zevsning haykali tasvirlangan. Bu davrda O'rta Osiyo shaharlari ham ham yuqori darajada rivoj topadi. Kushon davri ko'pgina viloyatlar va vohalarda o'tga davrlarga nisbatan yirik shaharmarkazlar, kichik shahar markazlari, kichik shaharchalar va shahar tipidagi manzilgohlar sonining ancha ko'payganligi kuzatiladi. Kushon davr shaharlari viloyatlar, ayrim vohalar va tumanlarning mamuriy-siyosiy markazlar hisoblanib, ularning saqlanib qolgan xarobalarida qalalar Samarqanddagi Afrosiyobda, Marvdagi Govurqalada, Qarshi vohasidagi Yerqo'rg'onda, Eski Termizda, Dalvarzintepa va boshqlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. [5A.A]



Xulosa. Kushon davlati Markaziy Osiyo hududida tashkil topgan va Buyuk Ipak yo'lida muhim rol o'ynagan qadimgi davlatlardan biri. BU davlat savdo, madaniyat va dinlar rivojida katta ahamiyat kasb etib, buddizmning tarqalishiga zamin yaratgan. O'zining yuksalish cho'qqisiga Kanishka I davrida yetgan bu imperiya boy madaniy merosi bilan tarixda o'ziga xos o'rin egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Kabirov “ Qadimgi Sharq tarixi” Toshkent-2016
2. A.Sagdullayev “ O'zbekiston tarixi” Toshkent-2021
3. R.Rajabov “Qadimgi dunyo tarixi Toshkent-2020
4. B.Eshov “O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi” Toshkent-2012
5. SH.Pidayev “Sirli Kushonlar saltanati” Toshkent-1990
6. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
7. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
8. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
9. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
10. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOIY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.



11. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
12. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
13. Begaliev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
14. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
15. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
16. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
17. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.